

KOMMUNIKATIV KO'NIKMA TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK MOHIYATI

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Qo'qon davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim kafedrası v.b dotsenti

Kalit soʻzlar: *Kommunikativ ko'nikma, metod, metodika, innovatsiya, kommunikatsiya, metodologiya, bilim, ko'nikma, malaka.*

Kommunikativ ko'nikma tushunchasi ta'limiy jarayondagi eng muhim tushunchalardan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Bu tushuncha insonning atrofdagilar bilan samarali muloqot qilish, fikr almashish, o'z g'oyasini aniq va ta'sirchan ifoda etish, boshqalar fikrini tushunish va munosib javob qaytarish qobiliyatini ifoda etadi. Ayniqsa, XXI asrda axborot oqimi shiddat bilan ortgan, raqamli murakkab kommunikatsiya muhiti shakllangan bir paytda shaxsning kommunikativ qobiliyati nafaqat ta'limda, balki ijtimoiy hayotda ham hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Bugungi global dunyoda faqat bilimli bo'lish yetarli emas – uni ifoda etish, boshqalar bilan ijobiy munosabatda bo'lish va jamoaviy fikrlash jarayonida faol ishtirok etish ham talab etilmoqda. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogikada kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab ustuvor vazifalardan biriga aylangan. O'quvchining o'ziga ishonchi, shaxsiy pozitsiyasi va muloqot madaniyati aynan ana shu ko'nikmalar asosida shakllanadi. Xususan, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlari ham faqat akademik bilimlarni emas, balki o'quvchining muloqot qilish va axborotni qayta ishlash salohiyatini baholashga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi.

Yuqorida kommunikativ ko'nikmalar tushunchasiga berilgan ta'riflar asosida biz o'z mualliflik ta'rifimizni ishlab chiqdik. Unga ko'ra: kommunikativ ko'nikmalar – bu insonning til, emosional va ijtimoiy vositalar orqali axborotni samarali yetkazish, qabul qilish, fikr almashish hamda muloqot jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va boshqarish qobiliyatidir.

Ushbu ta'rif kommunikativ ko'nikmalarining kognitiv (fikr almashish va axborotni tahlil qilish), emosional (empatiya va ta'sirchanlik) va ijtimoiy (jamoaviy munosabatlarni rivojlantirish) qirralarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, unda til va madaniyatning uyg'unligi hamda muloqotning kontekstual xususiyatlari ham inobatga olingan. Bu ta'rif, bizningcha, kommunikativ ko'nikmalarining inson shaxs sifatida rivojlanishidagi ahamiyatini yoritib, uning ijtimoiy, ta'limiy va shaxsiy jarayonlardagi rolini ochib beradi.

Kommunikativ kompetentlik va kommunikativ ko'nikma atamaları ko'p hollarda bir-biri o'rnida ishlatilsa-da, ular mazmunan va funksional jihatdan farqli tushunchalardir. Bu farqni aniq anglash ta'lim jarayonida maqsad va vazifalarni to'g'ri belgilash, shaxs rivojlanishiga bosqichma-bosqich yondashish, hamda pedagogik strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kommunikativ ko'nikma tushunchasi ko'proq amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, u insonning real muloqot jarayonida tilak bildirish, fikr almashish, savol berish, javob qaytarish, munosabat bildirish kabi nutqiy harakatlarni tartibli va maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish qobiliyatini anglatadi. Ya'ni, bu – quyidagi kabi nutqiy faollikning tashkiliy elementlaridan iborat amaliy salohiyat: so'z boyligi, grammatik to'g'rilik, til birliklarini holatga mos tanlash, nutqni ifoda va ta'sir vositasi sifatida to'g'ri qo'llash. Kommunikativ ko'nikmalar bolalarda muayyan mashqlar, muloqotli mashg'ulotlar va ijtimoiy aloqalar orqali asta-sekin rivojlanadigan nutqiy tajribalar yig'indisidir.

Kommunikativ kompetentlik esa ko'nikmalardan kengroq qamrovga ega bo'lib, faqat amaliy muloqot bilan cheklanib qolmaydi, balki shaxsning lingvistik, pragmatik, madaniy, strategik va meta-kommunikativ bilim va tajribasini ham o'z ichiga oladi. U Yevropaning umumiy CEFR (Common European Framework of Reference) standartlarida “muloqot jarayonida turli vaziyatlarga mos ravishda nutq yuritish, norasmiy va rasmiy til shakllarini farqlash, munosabatni madaniy nuqtai nazardan to'g'ri qurish”¹ kabi elementlar bilan tavsiflangan. Shu jihatdan, kommunikativ kompetentlik shaxsda mavjud bilim, tushuncha va ko'nikmalarni muayyan ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy muhitda to'g'ri tanlab, xolis, ta'sirchan va maqsadli ravishda ishlatish qobiliyati hisoblanadi.

Bu ikki tushuncha o'rtasidagi asosiy farq shundaki, ko'nikma – amaliy malaka bo'lsa, kompetentlik – shu malaka, bilim va munosabatlar birligidan tashkil topgan murakkab tuzilma hisoblanadi. Masalan, o'quvchi “qaysi vaziyatda qanday gapirish”ni nazariy jihatdan bilsa (bilim), bu hali uning kompetent ekanini anglatmaydi. Faqat shu bilimni maqsadga muvofiq holda, turli vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llay olgandagina u kommunikativ kompetentlikka ega deb baholanadi.

Shu nuqtai nazardan, kommunikativ ko'nikmalar – kompetentlik sari yo'naltirilgan qadamlar sifatida qaralishi lozim. Ular kompetentlikni shakllantirishda instrumental va vazifaviy vosita hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlik esa ushbu ko'nikmalarni nafaqat bilish, balki ijtimoiy vaziyatni baholash, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va ta'sirchan muloqot qurish qobiliyati bilan boyitadi.

Pedagogik jarayonda ushbu ikki tushuncha o'rtasida farqni bilish metodika va baholash mezonlarini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Masalan, o'quvchida so'z boyligi (leksik ko'nikma) va grammatik to'g'rilik (morfo-sintaktik ko'nikma) shakllansa-da, agar u ma'noli muloqotga kira olmasa, u kommunikativ kompetent hisoblanmaydi.

Shu bois, kompetentlikni shakllantirish uchun nafaqat ko'nikmalarni, balki strategik va madaniy tuzilmalarni ham nazarda tutish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ ko'nikma – amaliy faoliyat asosida shakllanadigan nutqiy qobiliyatlar yig'indisi, kommunikativ kompetentlik esa bilim, ko'nikma va munosabatlar integratsiyasi asosida yuzaga keladigan ijtimoiy-funksional salohiyatdir.

Shu jihatdan, ta'lim jarayonida kommunikativ ko'nikmalar asosida kompetentlikni rivojlantirish bosqichma-bosqich va tizimli yondashuvni talab etadi.

¹ Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment / Council of Europe. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 273 p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdelghani R., Oudeyer P.-Y., Law E. Conversational agents for fostering curiosity-driven learning in children // arXiv:2204.03546. 2022.
2. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 2005. – P. 4.
3. Duschanova N.S. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: qiyosiy tahlil. Academic Research in Educational Sciences . Volume 3, Issue 3, March, 2022.
4. Haiman G. Group communication in school environments. – New York: Palgrave Macmillan, 2015. – P. 67.